



«НАУКА 2025: ПРОБЛЕМЫ, ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

Материалы международной
научно-практической конференции

24-мая 2025-года

Редакционная коллегия:

Доктор экономических наук, профессор Федорова Ю.В.
Доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, Мухаммадиев К.Б.
Доктор социологических наук, доцент Смирнова Т.В.
Доктор технических наук, доцент Хайдарова С.

О13 «НАУКА 2025: ПРОБЛЕМЫ, ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» Москва
2025 материалы международной научно-практической конференции (24-мая 2025
г., Москва) Отв. ред. Морозов С.А. – Издательство ЦПМ «Академия
Просвещения», Москва
2025

Сборник содержит научные статьи и тезисы ученых Российской Федерации и других стран. Излагается теория, методология и практика научных исследований в области информационных технологий, экономики, образования, социологии.

Для специалистов в сфере управления, научных работников, преподавателей, аспирантов, студентов вузов и всех лиц, интересующихся рассматриваемыми проблемами.

Материалы сборника размещаются в научной электронной библиотеке с постатейной разметкой на основании договора № 1412-11/2025-02-04

© Московский государственный педагогический университет, 2025
© Саратовский государственный технический университет, 2025
© Автономная некоммерческая организация "Центр развития туристических проектов и молодежных инициатив "ВОКРУГ ВОЛГИ", 2025

Haydarova Zilola Normurodovna
Senior teacher of Chirchik State Pedagogical University

E-mail: haydarova.zilol@gmail.com

Phone: 93 567 74 39

O‘QUVCHILARDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONLARINI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA O‘RGATISH - RAQAMLI SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MEZONIDIR.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonini raqamlashtirish, raqamli ta’lim zarurati, maktab o’quvchilarida raqamli resurs va vositalar yordamida ta’lim olish va o’rganish ko’nikmalarini shakllantirish zarurati to’g’risida, ta’lim tizimini, ayniqsa, maktab ta’limini zamonaviy yutuqlarga moslashtirish, o’quvchining qiziqishlari, imkoniyatlaridan ijobiy maqsadlarda foydalanish, globallashtirish davri va texnika asrida raqamli ko’nikmalarni shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: raqamlashtirish, individual, intensiv, axborot jamiyati, axborot madaniyati, innovatsion madaniyat, vaziyatni modellashtirish, raqamli ta’lim, raqamli o’qitish, raqamli savodxonlik, raqamli texnologiya, konstruktiv, ijodiy fikrlash, individual ta’lim, mobil ta’lim, raqamli manbalar, kreativlik, kommunikativlik, ijtimoiylashuvlik.

LEARNING USING DIGITAL TECHNOLOGIES, USING DIGITAL RESOURCES IS AN INDIVIDUAL EDUCATIONAL OPPORTUNITY.

Annotation: This article reflects on the digitization of the educational process, the need for digital education, the need to form learning and learning skills in schoolchildren using digital resources and tools, the adaptation of the educational system, especially school education, the use of the student's interests,

opportunities for positive purposes, the era of globalization and the formation of digital skills in the

Key words: digitization, individual, intensive, information society, Information Culture, innovative culture, situational modeling, digital education, digital teaching, digital literacy, digital technology, constructive, creative thinking, individual education, mobile education, digital resources, creativity, communicativity, socialization.

ОБУЧЕНИЕ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ - ЭТО ВОЗМОЖНОСТЬ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о цифровизации образовательного процесса, о необходимости цифрового образования, о необходимости формирования у школьников навыков обучения и обучения с помощью цифровых ресурсов и инструментов, о адаптации системы образования, особенно школьного, к современным достижениям, об использовании интересов, возможностей учащегося в позитивных целях, о формировании цифровых навыков в эпоху глобализации и век технологий.

Ключевые слова: цифровизация, индивидуальное, интенсивное, информационное общество, Информационная культура, инновационная культура, ситуационное моделирование, цифровое образование, цифровое обучение, цифровая грамотность, цифровые технологии, конструктивное, творческое мышление, индивидуальное обучение, мобильное обучение, цифровые ресурсы, креативность, коммуникативность, социализация.

Globallashuv davri va texnika asri imkoniyatlaridan ijobiy maqsadlarda foydalanish, nafaqat vaqtning samarali o‘tishini ta’minlaydi, balki o‘quvchining hayotiy ko‘nikmalarini oshiradi, umumiy bilish darajasini oshiradi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Zamonaviylik belgisi bo‘lgan raqamli vosita va resurslar o‘quvchi imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi kerak. Raqamli

resurs va vositalar o'quvchini fikrini buzuvchi, vaqtini o'g'irlovchi, dangasalik va boqmandilik, vayronkorlik kabi regressiv ko'nikmalarni shakllantirishga emas, aksincha quyidagi progressiv ko'nikmalarni shakllantirishi kerak:

- o'z vaqtini o'zi nazorat qila oladigan;
- mustaqil o'rgana oladigan;
- bilishdan bilmasliklarini aniqlay oladigan;
- refleksiv munosabatni kirishish;
- kreativlik;
- kommunikativlik;
- tanqidiy mulohaza qilish;
- raqamli resurs va raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish;

O'quvchilarda raqamli vositalardan foydalanish, raqamli resursalar yordamida o'rganish, ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Maktab o'quvchilarida raqamli vositalar va raqamli resurslar yordamida o'rganish, ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagilarga to'xtalib o'tmoqchimiz:

Raqamli o'rganish dastlab raqamli texnologiya va raqamli vositalardan foydalanish va ishlata olishdan boshlanadi. Raqamli vositalar yordamida o'rganish, raqamli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlanishi raqamli ta'lim dasturlariga kirish va ulanib beruvchi vositalarni o'rnatishni talab qiladi. Raqamli vositalar jumladan raqamli qurilmalarni faollashtirishda internet tarmog'iga ulanish wi-fi qurilmasi yordamida amalga oshiriladi.

Wi-Fi qurilmasi raqamli vositalarni internet tarmog'iga ulashish uchun bir xil tarmoq protokolida ishlaydigan zamonaviy texnologiya bo'lib, bu qurilma kabl va boshqa simlarsiz ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishni ta'minlaydi.

Wi-Fi qurilmalari, modem yoki router qurilmasini internetga ulanish hamda veb interfeys orqali sozlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu sozlashlardan so'ng,

raqamli vositalar – mobil telefonlar, kompyuterlar, smart tv, planshet va notebooklar Wi-Fi tarmog'iga ulanib, internetdan foydalanish imkoniyatini beradi

Raqamli vositalar Wi-Fi tarmog'i orqali internetga ulanadi. Ushbu vositalar Wi-Fi tarmog'ini topib, mos keluvchi parol bilan ulanganidan so'ng internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, Wi-Fi tarmog'ining doimiy ravishda ishlashi uchun energiya talab etadi. Uyali Aloqa qilish imkonini beruvchi kompaniyalarni tegishli tariflari sotib olingach, ya'ni oylik to'lovlarni amalga oshirilishi Wi-fi tuzilmasining to'liq ishlash richagi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bugungi kun o'quvchilari uchun ijtimoiy ko'nikma sifatida kundalik hayotda keng foydalanilmoqda.

Maktab o'quvchilarida raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanishda raqamli dasturlash vositalari va raqamli xizmatlar to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Raqamli vositalar yordamida raqamli dasturlar va sotsial tarmoqlardan foydalanishda o'quvchilar sotsial menejment va sotsial marketing bilimlaridan xabardorligi raqamli o'rganish samaradorligini oshiradi.

Raqamli vositalar yordamida ma'lumotlarni qidirish, topish, to'plash va saqlash raqamli o'rganish bosqichlari hisoblanadi. Raqamli vositalar yordamida topilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahliliy diagnostikalash ma'lumotlarni tahlil qiluvchi algoritmlar bilan ishlash zaruratini paydo qiladi. Bu algoritmlar ma'lumotlarni tahlil qilib, o'rgatish va tushuntirishga yordam beradi.

O'quvchilarda raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish uchun ma'lumotlar bilan ishlash, olingan axborotlarni to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirmasdan tanqidiy mulohaza yuritishga o'rgatish tobora dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Maktab o'qivchilarida raqamli resurs va vositalar yordamida o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarning analitik fikrlashga o'rgatish sinf rahbari, fan o'qituvchisi, maktab jamoasidan daxldorlik hissi va ijtimoiy faollikni talab etadi. Raqamli o'rganishning asosiy qismi, muhim

ma'lumotlarni aniqlash va olgan natijalardan foydalanib, mustahkamlashga imkon beruvchi analitik fikrlash bosqichlarini amalga oshirishni talab etadi. Analitik fikrlash, muammolarni aniqlab chiqish va nostandart jarayonlarda qo'llay olishga yordam beradi.

Raqamli o'rganish jarayonida o'quvchilar o'z qiziqishlari yoki tanlangan mavzu, yo'nalish va sohaga doir o'rgangan bilimlarni solishtirish, avvalgi o'rganilgan ma'lumotlar bilan yangi ma'lumotlarni taqqoslash hamda olingan xulosalar asosida natijalarni jamoaga ya'ni dars jarayonida kichik va katta guruhlarda muhokama qilish, fan o'qituvchisiga loyiha ishi sifatida taqdim etish o'quvchining raqamli vosita va resurslar asosida o'rgangan bilimlarini tajribada qo'llash imkonini oshiradi. Raqamli o'rganish asosida shakllangan bilimlar va o'rgangan natijalarni amalga oshirib borish, katta va kichik jamoada fan o'qituvchilari ishtirokida muhokama qilish o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Raqamli vositalar va resurslar yordamida bilim olish va o'rganish jarayonida tanlangan raqamli o'rganish resurslari ta'lim oluvchiga olgan bilimni qisqa muddatlarda o'z bilimini tekshirish va baholash imkoniga ega bo'ladi.

Tadqiqot ishimiz davomida o'rganilgan ishlar yuzasidan raqamli resurslar va raqamli vositalarni bir biridan farqli tomonlarini tahlil etishga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Raqamli ta'lim resursi – ta'lim berishda kompyuterni talab qiladigan mahsulotidir. Raqamli ta'lim resursidan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli ta'lim resursi - bu o'qitishda vizualizatsiyaning tezkor vositasi, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda, maktab o'quvchilarining so'rovi va monitoringini tashkil etish va o'tkazishda, shuningdek uy vazifalarini kuzatish va baholashda, diagrammalar, jadvallar, grafiklar, belgilar bilan ishlashda yordamchi, matnlarni tahrirlash va o'quvchilarning ijodiy ishlari xatolarni tuzatishda operativ vosita hisoblanadi. Dasturlashtirilgan o'qitishning

o'ziga xos xususiyati - bu o'quv jarayonini faollashtirishga yordam beradigan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyat, shuningdek, o'qitishni individuallashtirish va differentsiallashtirish mumkin bo'lgan tezkor aloqaning mavjudligidir[1].

Ta'lim sohasida raqamli ta'lim resursidan foydalanish o'qituvchilarga o'qitishning metodini, tashkiliy shaklini va mazmunini sifatli o'zgartirish imkonini beradi. Pedagogik faoliyat vositalari takomillashtirilmoqda, o'qitish sifati va samaradorligi ortib bormoqda. Raqamli ta'lim resursi an'anaviy o'qitish vositalariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega. Raqamli ta'lim resurslarining maqsadi axborot jamiyatida o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini mustahkamlash, shuningdek, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim sifatini oshirishdan iborat

Raqamli resurslarga turli platformalar, ijtimoiy tarmoqlardagi ta'limga oid bloklar, mobil ilovalar, elektron darsliklar, internet saytlari, videolar, audio kitoblar va boshqa elektron formatdagi ta'lim materiallari kiradi. Raqamli resurslardan foydalanish o'quvchilarga iste'mol qilgan materialni istalgan vaqtda o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, raqamli resurslar o'quvchilar uchun tayyorlangan misollar, mashg'ulotlar va test savollarni ham o'z ichiga oladi.

Raqamli vositalarga kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar, netbook va notebooklar hamda boshqa elektron qurilmalar misol bo'ladi. Raqamli vositalarning asosiy vazifasi raqamlar bilan ishlashdan kelib chiqadi. O'quvchi raqamli vositalardan foydalanib, kitob o'qish, darslarni tinglash, video darslarni ko'rishi, topshiriqlarni bajarish jarayonida foydalanishi va raqamli resurslarga kirish uchun foydalanadi.

Raqamli o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish zarurati, o'quvchilar uchun raqamli resurslarni qo'llash va raqamli vositalardan foydalanishni o'rganishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning ma'lumotlarni sifatli va samarali ravishda bilishga, o'ranishga, kundalik faoliyatida o'llay olish imkonini oshiradi

Raqamli resurslar ta'lim olish jarayonida o'quvchiga quyidagi imkoniyatlar va qulayliklarni beradi:

- Raqamli resurslar orqali o'quvchi elektron kitoblar, vizual darsliklar va boshqa ta'lim olish imkonini beradigan materiallar orqali o'rganish;

- Raqamli resurslar yordamida onlayn kurslar orqali ta'lim olish;

- Raqamli resurslardan foydalangan holda tuzilgan interaktiv dasturlar, o'quvchiga amaliyotga asoslangan bilimni oshirishga yordam beradi. Masalan chet tilini o'rgatuvchi dasturlar yordamida o'quvchi bir paytni o'zida o'qiydi, eshitadi, tarjima qiladi, ko'radi, o'zi bilan darajasi teng o'rganuvchi bilan fikr almashadi, kundalik hayotida doimiy qo'llaydi. Bu jarayon o'quvchiga chet tilini o'rganish uchun qulay ta'lim olish muhitini yaratadi.

- Raqamli resurslar orqali o'quvchi ilmiy kutubxonalardan, maqolalardan va tadqiqotlardan foydalanishi mumkin. Bu, o'quvchining ma'lumot olishini kuchaytiradi va qiziqishlarini muhokama qilishga imkon beradi;

- Raqamli resurslar ta'lim olish jarayonida o'quvchiga kommunikatsiya va hamkorlik imkoniyatlari beradi. O'quvchilar boshqa o'quvchilar bilan fikr almashish, loyiha ishlarida ishtirok etish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- Raqamli resurslar ta'limda monitoring va baholashni tezlashtiradi. Onlayn test savollari, darslarda yig'ilgan ma'lumotlarni tekshiruvchi dasturlar kabi vositalar orqali o'quvchilarning tushuntirilgan mavzular bo'yicha tajriba va bilim darajasini baholash mumkin.

- Raqamli resurslar orqali tuzilgan virtual darslar yoki onlayn kurslarda o'quvchi o'ziga mos bo'lgan bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda, uydan chiqmasdan turib, vaqt imkoniyatlarini samarali foydalanib, zarur bilimlarni kamroq vaqt ichida o'rganadi va o'z vaqtini boshqarish imkoniyatlarini yaratadi.

- Raqamli resurslar o'quvchi uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, qiyoslash imkoniyatini beradi. Bu, o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash, nazariya va amaliyotni taqqoslashga yordam beradi.

Raqamli resurslar va raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish o'quvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda qulay ta'lim olishga o'rgatadi. Bu usullar o'quvning samaradorligini oshiradi, bilim darajasini yuksaltadi va o'quvchining iste'mol qilingan raqamli resurslardan olingan bilimlarni amalda qo'llay olish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida o'rganish, raqamli resurslardan foydalanish, o'quvchilar uchun individual ta'limning imkoniyatlarini yaratadi. O'quvchi o'zining tajribasi, bilim darajasiga muvofiq dars mazmunini tanlashi mumkin. Raqamli resurslar o'quvchilarga bir mavzu haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. O'quvchi dars jarayonida o'qituvchi bergan bilimlar, qo'llanma yoki kitobdan olgan ma'lumotlardan tashqari, mavzuga oid videolar, interaktiv darslar va boshqa ilovalar orqali yangi bilimlar olishi mumkin.

O'quvchilarda raqamli vositalar va resurslar yordamida ta'lim olish va o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni quyidagi bosqichlar natijasida amalga oshiriladi:

1. Mavzular tanlash: O'quvchilar uchun qiziqarli mavzularni tanlashda raqamli vositalardan foydalanish mumkin. Bu, o'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirishi mumkin.

2. Tahliliy ta'lim: Raqamli resurslardan foydalanish orqali tahliliy ta'lim jarayonlari amalga oshiriladi. Misol uchun, ma'lumotlar analiz qilinishi, statistikalar yig'ilishi, grafiklar ishlab chiqarish kabi tahliliy amaliyotlar bajarilishi mumkin.

3. Loyiha ishi bajarish: Raqamli vositalar va resurslardan foydalangan holda o'quvchilar kundalik faoliyatida duch keladigan muammolarni hal qilishga qaratilgan ishlarni yakka yoki jamoa bo'lib bajarishi.

4. raqamli vositalar va resurslar yordamida ta'lim olish va o'rganish imkoniyatlarini o'quvchilarga tushuntirish, telefon va kompyuter vositalaridan maqsadli foydalanishni o'rgatish.

Raqamli vositalar va resurslar, o'quvchilarga ta'lim olish va o'rganish bosqichlarini yanada yaxshilash imkoniyatlarini beradi. Bu vositalar va resurslar, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'llaniladi.

Raqamli vositalar, kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar kabi qurilmalar orqali ta'minlangan. Bu qurilmalar orqali internetga kirish uchun foydalanish mumkin bo'ladi. Internet orqali esa bir necha foydali resurslarga kirish imkoniyati mavjud. Bunda o'quvchilar elektron kutubxonalar, viki-saytlar, onlayn ma'lumotlar bazalari va boshqa ta'lim platformalari orqali o'rganadilar. Raqamli resurslar ta'lim olishda o'quvchilarga yordam beruvchi muhim vositalardir. Bu resurslar va vositalar, bilim olish jarayonini qulaylishtiradi.

Raqamli resurslar va raqamli vositalar yordamida bilim olishda ta'lim oluvchilarga quyidagi talablar qo'yilmoqda:

Raqamli resurslar internet orqali erkin o'rganish imkon beruvchi ma'lumotlardan Bu ma'lumotlar, elektron kitoblar, darsliklar, maqolalar, videolar, audio fayllar va boshqa ko'plab materiallardan iborat bo'lishi mumkin. Raqamli resurslar, o'quvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish imkoniyatini beradi. Bu resurslarda qidiruv tizimi yordamida o'quvchilar kerakli ma'lumotlarni topishadi.

Raqamli vositalarga mobil ilovalar ham misol bo'ladi. Mobil ilovalar o'quvchilarga har qanday joyda o'rganish imkonini beradi. Bu ilovalar darsni interaktiv holatda mualliflikni rivojlantiradigan mavzular bilan bog'lab o'tkazishi mumkin bo'ladi. Misol uchun, matematika darsini yaxshi tushunish uchun o'quvchilar matematika o'yinlaridan foydalanishi mumkin. Ingliz tili darsini o'rganish uchun mobil ilovalar orqali o'quvchilarning gapirish va tinglashni rivojlantirishi mumkin.

Mobil ilova (inglizcha: Mobile app) — ma'lum bir platforma (iOS, Android, Windows Phone) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan dastur[2]. Ko'pgina mobil ilovalar qurilmaning o'zida oldindan o'rnatiladi yoki ularni App Store, Google Play va

boshqalar kabi onlayn dastur do‘konlaridan bepul yoki pullik yuklab olish mumkin.

Dastlab, mobil ilovalar elektron pochta tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning yuqori talablari boshqa sohalarda ham kengayishiga olib keldi, masalan, mobil telefon va GPS o‘yinlari, suhbatlashish, video tomosha qilish va Internetdan foydalanish. Ushbu atama 2007-yildan beri juda mashhur bo‘lib, 2010-yilda Amerika Dialektik Jamiyati tomonidan „Yil so‘zlari“ ro‘yxatiga kiritilgan.

Mobil ilovalar bozori bugungi kunda juda rivojlangan va barqaror o‘sib bormoqda. Statistika prognozlariga ko‘ra, 2020-yilda mobil ilovalar sanoatining yillik yalpi daromadi 189 milliard dollardan oshadi.[3] Mobil ilovalar yaratish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin.

Ta’lim uchun ishlab chiqilgan mobil ilova va dasturlarning afzalliklari shundaki, bu vositalar orqali taqdim etilgan ma’lumotlar o‘quvchilarning yoshi, qiziqishi, bilish darajasi, fanga mosligidan kelib chiqib tanlanishi mumkin. Ta’lim olish va o‘rganish uchun mo‘ljallangan mobil ilovalar raqamli ta’lim sharoitini ta’minlovchi vositalar hisoblanadi. Ta’limga oida mobil ilovalarning top 10 taligini aniqlash maqsadida tajriba sinov ishlarini o‘tkazish hamda ilova foydalanuvchilari fikrini aniqlash zamonaviy pedagogika oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

2022-2023 o‘quv yilida foydanilgan boshlang‘ich ta’limda maktab darsliklarining raqamli varianti mobil ilova tarzida yaratildi. Darslikda berilgan audio va video kontentlarni kodlashtirilganligi maktab o‘quvchilarini fanga hamda darsliklardagi ma’lumotlarni o‘qib o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

Maktab ta’limi tizimida o‘rganiladigan fanlar doirasida yaratilgan Mobil ilovalarni tipik xususiyatlariga ko‘ra tahlil etilganida matematika, ingliz tili, rus tili, musiqa, tasviriy san’at, ona tili, kimyo, texnologiya fanlari doirasida yaratilganligi aniqlandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishi va o'zlashtirishiga mos tarzda shaxmat, shashka, mental arifmetika, mantiqiy fikrlash bo'yicha ham mobil ilovalar yaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limiy o'yinlar orqali bilim berishga asoslangan mobil ilovalar ham mavjud bo'lib, bu ta'limiy o'yinlarni quyidagicha guruhlarga ajrattik:

1. Matematik bilimlarni shakllantirishga doir ta'limiy o'yinlar;
2. Savod o'rgatish bilan bog'li ta'limiy o'yinlar;
3. So'z boyligini oshirishga yo'naltirilgan ta'limiy o'yinlar;
4. Til o'rganishga yo'naltiradigan ta'limiy o'yinlar;
5. Rasm chizishni o'rgatadigan ta'limiy o'yinlar;
6. Kasb-hunarlar haqida bilim beruvchi [4].

Raqamli vositalar yordamida ta'lim olish jarayoni o'quvchilarda raqamli ko'nikmalarni shakllantirishni talab etadi. Raqamli ko'nikmalar nafaqat raqamli vositadan foydalanish usullari, balki ma'lum bir natijaga erishish, kundalik hayotda yoki kasbiy faoliyatda muammoni hal qilish uchun undan qanday foydalanishni ongli ravishda tushunish, shuningdek, shaxsning rivojlanishiga doir ma'lumotlarni yaratish kabi sifatlar bilan belgilanadi [5].

Raqamli ko'nikmalar asosiy, ya'ni kasbi va faoliyatidan qat'i nazar, jamiyat a'zolari oldida turgan umumiy, o'ziga xos bo'lmagan vazifalarni hal qilishda raqamli qurilmalardan ongli ravishda foydalanish uchun shaxsning o'ziga o'zi mas'ulligidir [6].

Raqamli vositalar orqali o'quvchilar ta'lim muassasalarida dars berayotgan fan o'qituvchilar bilan e-mail yoki chat orqali bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul orqali o'quvchilar fanga oid yangiliklar haqidagi savollarga javob olishlari, qo'shimcha ma'lumot so'rashlari va fikr bildirishlari mumkin. Raqamli vositalar ta'lim sohasida yangiliklarga va qo'shimcha bilimlarga ega bo'lish hamda xabarlashishni osonlashtiradi va o'quvchilarning fanga oid muhim ma'lumotlarga tezroq erishishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ананьев И.И. Использование информационной системы для модульной организации образовательного процесса / И.И.Ананьев, П.И.Ананьев, А.В.Бобров // Измерение, контроль, информатизация. Барнаул, 2007. С. 161— 163.

2. „Topic: Mobile app usage“ (en). www.statista.com. Qaraldi: 29-oktabr 2019-yil. <https://americandialect.org/app-voted-2010-word-of-the-year-by-the-american-dialect-society-updated>

3. <https://americandialect.org/app-voted-2010-word-of-the-year-by-the-american-dialect-society-updated>

4. Уваров А.Ю. Образование в мире цифровых технологий: на пути к цифровой трансформации. М.: ГУВШЭ, 2018. 168 с

5. Пеша А. В., Шавровская М. Н., Лапина Т. А. Оценка ценности и самооценка развития цифровых компетенций будущих HR-менеджеров // Вестн. Омский университет. Сэр. "Эконом". 2020. В. 18, № 3. С. 98-108.

6. Навыки цифрового обучения – новое пограничное понятие для политических и образовательных исследований / Л. Иломаки, С. Паавола, М. Лаккала, А. Кантосало // Образование и информационные технологии. 2016. Том. 21, нет. 3. Б. 655-679.

7. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(4), 56-64

8. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.

9. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION

OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

10. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O.,QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOY MUHIT TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

11. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O'. (2024). RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

12. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. Mug'allim, 3(3), 199-206.

13. Haydarova, Z.N.(2024). Ta'limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.

14. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

15. Haydarova, Z. N. (2023). Ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarleri, 1(10), 225-227.

16. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

СОДЕРЖАНИЕ

1.	Abdullaev S.S. ON A NEW MULTI-LAYER TECHNOLOGY FOR SQUEEZING SEMIFINISHED LEATHER PRODUCTS	3
2.	Кануш Ахмед дахил Кануш СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РОССИИ В СВЯЗИ С ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ТНК В УСЛОВИЯХ САНКЦИЙ	6
3.	Воскресенский И.Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЕЛОВОЙ ИГРЫ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЮРИДИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН (НА ПРИМЕРЕ УГОЛОВНОГО ПРАВА)	18
4.	Калинчук П.Д. АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ-ПЕРВОКУРСНИКОВ К ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ УСЛОВИЯМ ВУЗА	25
5.	Кануш Ахмед Дахил ИНВЕСТИЦИИ КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ КОМПАНИИ ОТ ВАЛЮТНЫХ РИСКОВ	32
6.	Беляева М.М. ЗНАЧЕНИЕ ЭТНИЧЕСКОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ	42
7.	Крушинский Н.К. КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЛЯ ДЕТЕЙ СТАРШЕЙ ШКОЛЫ	48
8.	Лушников Е.А. ИЗУЧЕНИЕ СВЯЗНОЙ РЕЧИ У СЛАБОСЛЫШАЮЩИХ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	58
9.	Минаева Д.Д. АКТУАЛЬНОСТЬ ПРОБЛЕМЫ ЭКОКОММУНИКАЦИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ	66
10.	Сафин Т.И. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В РОССИИ, ОТХОД ОТ БОЛОНСКОЙ СИСТЕМЫ	71
11.	Томилова О.С. К ВОПРОСУ ВЛИЯНИЯ ТОРМОЗНОГО ОБОРУДОВАНИЯ НА БЕЗОПАСНОСТЬ ДВИЖЕНИЯ ПОЕЗДОВ	76
12.	Усмонова А.Ш. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭЛЛИПСИСА	83
13.	Xalmetova Muxabbat Xudoynazarovna Abduraxmonov Xasan PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY KO'NIKMALARNING SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	91
14.	Xalmetova Muxabbat Xudoynazarovna Sapayev Baxtiyor O'QITISHNING ELEKTRON VOSITALARIDA JOYLASHTIRILADIGAN O'QUV MATERILLARI TUZILMASI VA TARKIBIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR	97
15.	Xalmetova Muxabbat Xudoynazarovna Erjanova Damira MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYA VA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH	102

83.	Yuldasheva Z.I. Raxmatullayeva M.I. TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUSTAQIL ISHLARNI SAMARADORLIGI	548
84.	Yuldasheva Z.I. Raxmatullayeva M.I. TIBBIY TA'LIMNI TASHKIL QILISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHNING DOZARBLIGI	556
85.	Musurmonov Ulug'bek Sherali o'g'li TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH METODIKASI	566
86.	G'afforva Hilola Furqat qizi ALOENI TIBBIYOTDA QO'LLASH KO'NIKMLARI	571
87.	Sholpanova Aygerim Marxabayevna INKLUZIV TA'LIMDA MOBIL TA'LIMDAN FOYDALANISH	577
88.	To'lqinova Firuza Asqar qizi MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI VA TUZILISHI	583
89.	Tursunaliyeva Gulasal Botirali qizi JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA BOLALARNI RIVOJLANTIRISH VA O'QITISH PRINSIPLARI	588
90.	Qambarova Madina Islomjon qizi KIMYO DARSLARINI SAMARALI O'QITISHDA MASALA YECHISH USULLARIDAN FOYDALANIASH AHAMIYATI	593
91.	Xakimjanova K.B. Fuzailova E.M. YENGIL ATLETIKADAN YUGURISH VA SAKRASH MASHQLARINI O'RGATISHNING METODIK XUSUSIYATLARI	600
92.	Kulbekova Madinabonu Komiljon qizi Abdullayeva Umriniso Baxodir qizi O'.Saidov SO'ZNING MORFEMIK TARKIBI VA SO'Z YASALISHI USTIDA ISHLASH	607
93.	Якубова Умида Шухратуллаевна ОБЗОР НЕКОТОРЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В КАЧЕСТВЕ ИННОВАЦИОННЫХ IT-ТЕХНОЛОГИЙ	613
94.	Muxammadiyev Qaxramon Sodiqovich Mavlonov Bahodir Arzikul o'g'li BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING TEXNOLOGIYA FANI ORQALI MEHNATGA BO'LGAN MUHABBATINI OSHIRISH	621
95.	Egamberdiyeva Matluba Komil qizi Mutalova Dilnoz RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	631
96.	Haydarova Zilola Normurodovna O'QUVCHILARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA O'RGATISH - RAQAMLI SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MEZONIDIR	637
97.	Mengliyeva Saodat Jangirova MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI HARAKATLI O'YINLAR ORQALI CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH	650